

## **2020-yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari**

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida jami **841,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sinh sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **110,7** % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 138,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,4 % hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 136,4 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,1 % yoki 496,8 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 24,5 % yoki 206,4 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

### **Yirik qurilish tashkilotlari**

hajmi - **138,0 mlrd. so‘m**

o‘sinh sur‘ati - **136,4 %**

### **Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

hajmi - **496,8 mlrd. so‘m**


o‘sinh sur‘ati - **106,3 %**

### **Norasmiy sektor**

hajmi - **206,4 mlrd. so‘m**

o‘sinh sur‘ati - **107,9 %**

**Yanvar-mart oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami



qurilish ishlari hajmida 68,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 7,7 % punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 26,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,6 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.



**Yanvar-mart oylarida qurilish  
ishlarining faoliyat turlari bo'yicha  
tarkibi**



- Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Jami qurilish ishlari hajmidan binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari ulushi 68,3 % ni, fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari 26,5 % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

### 2020-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi.



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 % ni tashkil etdi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 64,1 % (2,1 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 35,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 58,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 41,8 % ni (0,1 % punktga ko'payish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 23,1 % punktga kamaydi va 19,1 % ni tashkil etdi.


Qolgan 80,9 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 23,1 % punktga ko'paydi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari**

	<i>Jami</i>		<i>Shu jumladan:</i>	
			<i>hududiy yirik qurilish tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, % da</i>	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>841,2</b>	<b>110,7</b>	<b>138,0</b>	<b>136,4</b>
Termiz sh.	209,5	103,5	0,8	17,7
tumanlar:				
Oltinsoy	13,3	103,2	-	-
Angor	33,1	112,7	-	-
Bandixon	6,3	102,3	-	-
Boysun	53,4	108,7	-	-
Denov	67,6	108,1	-	-
Jarqoʻrgʻon	50,0	107,7	-	-
Qiziriq	30,8	104,3	2,2	94,5
Qumqoʻrgʻon	30,4	95,5	8,4	51,5
Muzrabot	35,3	105,5	-	-
Sariosiyo	160,7	131,5	112,5	160,4
Termiz	56,3	109,6	0,3	31,9
Uzun	24,5	136,7	7,7	-
Sherobod	46,8	109,4	6,1	91,4
Shoʻrchi	23,2	106,6	-	-



## 2020-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 496,8 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 59,1 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 138,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 16,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,4 % ni tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 24,5 % yoki 206,4 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (% da)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boysun tumanida qurilish hajmining 77,7 %, Angor tumanida 68,6 %, Termiz tumanida 67,9 % hamda Termiz shahrida 92,3 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da )**



 Davlat mulki

 Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 16,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,9 % ni tashkil qildi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 825,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,1 % ni tashkil qildi.






**Hududlarda qurilish ishlarining o'rish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'rish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'rish sur'ati 131,5 % ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 70,0 % ini tashkil qiladi.



**Yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan % da)**



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 24,9 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 19,1 %, Denov tumaniga 8,0 % va Boysun tumaniga 6,3 % ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**76 223-07-15**

**76 225-65-59**